







bog‘liqligi holda nutqni qurish, tashkillash va axborotni mukammal darajaga keltirish va uni kommunikativ jarayonga ko‘chirish kabi ko‘pqirrali jarayon mahsuli sifatida qarash imkonini berdi. Tilga bo‘lgan bunday yondashuv esa hozirgi kun tilshunoslik ilmidagi yangi yo‘nalish — Kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi.

Kognitiv tilshunoslik ilmining o‘rganish sohasi aniq o‘z chegarasiga ega bo‘lmaganligiga qaramay, so‘nggi yillarga kelib, uning o‘zida kognitiv leksikologiyani, kognitiv grammatikaning turli tiplarini namoyon etuvchi hamda kognitiv diskursni tadqiq etuvchi turli yo‘nalishlari yuzaga keldi.

Boshqa tomondan esa, semantikada uning kognitiv — prototip semantika, konseptual semantika, freym semantika kabi sohalarida jadal rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin (8, 17–33). Va nihoyat, bugungi kunga kelib, qator lingvistik muammolar tadqiqida kognitiv nuqtai nazardan yangi-yangi xulosalarni olish imkoni tug‘ildi. Buni eng avvalo, hozirda konseptuallashtirish va kategoriyallashtirishga; olamni anglashda olam manzarasining tilda aks etishi; tilning korrelyativ shakllari; til strukturalarining kognitiv strukturalar bilan munosabati; so‘z turkumlari muammosiga oid rus va o‘zbek tilshunosligida chop etilayotgan bir qancha maqolalarda ko‘rishimiz mumkin (1).

Bizningcha, kognitiv lingvistikaning vazifalari: 1) insondagi bilimlarning paydo bo‘lishida tilning rolini aniqlash; 2) olam va undagi narsalarni kategoriyallashtirish (tushunchalar hosil qilib, turlarga bo‘lish); konseptuallashtirish (konseptlar hosil qilish) va atash (nominatsiya) jarayonlarini tushunish; 3) konseptual sistema bilan til sistemasi o‘rtasidagi munosabatni aniqlash; 4) olamning lisoniy va kognitiv (konseptual) tasvirlari bilan bog‘liq masalalarni yechishdir (2).

Demak, kognitiv tilshunoslikda til insonning olam va odam bilan munosabatini ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, “kognitiv tilshunoslik”, “kognitiv grammatika” tushunchalarining o‘ziga to‘xtalib o‘tamiz.

“Kognitiv” so‘zi inglizcha “cognize — bilmoq, anglamoq, tushunmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Sh. Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo‘llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in‘ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir (4, 11).

A. Abduazizovning ta’kidlashicha, nutqning hosil bo‘lishi, uzatilishi, xotirada ongli saqlanishi kabi murakkab hodisalarning markazi miya neyronlari orqali amalga oshiriladi (4, 30). Tildagi turli birliklarning shakl va mazmunini farqlab, turlicha tushunchalar, konseptlar, freymlar yordamida milliy-madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni har bir xalq yoki etnos uchun o‘ziga xosligini aniqlashda fonologik vositalar katta xizmat qiladi. Inson tili “tovushli, ovozli” bo‘lib, u mazmunni hosil qilishda buyuk ahamiyatga egaligini kognitiv fonetika va fonologiyada o‘rganilishi sababli uni kognitiv tilshunoslikning asosiy tarkibiy qismi ekanligini e’tirof etish lozim.

Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo‘nalish leksik-semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra til umumiy

kognitiv mexanizm bo'lishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axborotning taqdimotini, kod yordamida uzatish va o'zgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

Kognitiv tilshunoslikda insonga xos bo'lgan kognitiv tuzilma va usullar yordamida axborotni to'la egallab olish mexanizmlari o'rganiladi. Zero, intensivlikni ifodalovchi so'zlar ham borliq haqidagi bilim va tasavvurlarni ifoda etishga xizmat qiladi.

So'z ma'nosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda so'zlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzleri va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni so'zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun unda so'zlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida "pishirib", o'z tilida (nutqida) tinglovchiga bekamu ko'st uzatishi bilan bog'liq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo'yishni talab qilmoqda.

Professor D. Ashurova o'z maqolasida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko'rsatib o'tadi (4, 60–61). Jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo'nalishlari vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so'z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi va konseptualizatsiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, ssenariy, skript, kategoriyalashtirish, konsept, konseptualizatsiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilar o'rin olmoqda. Mazkur yo'nalishning asosiy tadqiq metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), konseptual tahlil singarilar kiradi.

Yana shuni ham ta'kidlash muhimki, bugungi tilshunosligimizda freym, skript, ssenariy, geshtalt kabi oraliq til birliklarini o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Buning asosiy sababi — kognitiv tilshunoslik muammolarining tadqiqotlarimiz mundarijasidan o'ziga munosib o'rin olganligidir.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri, bu — konsept. Ushbu atama XX asrning 90-yillariga kelib keng qo'llanila boshladi. Konsept so'zi aslida, lotincha *conceptus* bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Hozir ham ko'pincha "konsept" terminidan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda.

Ye. S. Kubryakova ta'kidlaganidek, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi (7, 8).

Til inson ongida konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda

konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqda o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir.

Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi.

Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so'zlar orqali ifodalanadi. Masalan, *water, tree, eye, friendship*; nemis tilida *wasser, baum, auge, friendship, freundschaft*; o'zbek tilida *suv, daraxt, ko'z, do'stlik*; rus tilida *voda, derevo, glaza, drujba* kabi. Ushbu misollar so'z ma'nosi va tushunchaning bir-biri bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so'zlar o'z ma'nosiga ko'ra bir-biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so'z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug'iladi. Ba'zi olimlar tushuncha va so'z ma'nosining bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydilar hamda shu asosda tushuncha va so'z ma'nosiga mohiyatan bir narsa deb qaraydilar. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so'z ma'nosining birligi nimada ko'rinadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Har ikkalasi ham bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tushuncha so'z va uning ma'nosisiz mavjud bo'lmaydi va, aksincha, so'z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So'z ma'nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo'lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

Tafakkur qonunlari obyektiv olam bilan bog'liq. Tushuncha mazmuni millatga bog'liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadilar, fikr almasha oladilar. So'z esa milliy xarakterga ega va u mazkur xalq tilining o'ziga xos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so'zning ma'nosi boshqa tildagi so'z ma'nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi. B. Ismoilov o'z tadqiqotida rus tilidagi "stol" tushunchasi ingliz va rus kishisi uchun bir xil bo'lsa-da, uni leksik ma'nosiga ko'ra ingliz tilidagi "table" so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llab bo'lmasligini to'g'ri ta'kidlaydi (4, 40). Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, konsept va tushuncha bir-biriga umuman yaqin, lekin konsept tushunchaga nisbatan keng ko'lamga ega. Masalan, "stol" so'zining ma'nosini tushuntirishda biz "to'rt oyoqli, ust qismi silliq, yozish yoki ovqatlanish uchun foydalaniladigan mebel turi" deb izohlaymiz. Tushunchada stolning eng muhim tomonlari aks etadi, xolos. Konsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir.

Akademik I. I. Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalanayotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo'lmaydi. Tushuncha kategoriyalari tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalanish imkoniyatiga ega bo'lgan tushunchalardir (8, 7).

I. I. Meshchaninovning tushuncha kategoriyasi g'oyasi (8, 16) asosida keyinchalik tilshunoslikda "mazmuniy maydon", "funktional-semantik maydon", "paradigmatik yoki sintagmatik maydon", "leksik-semantik maydon", "leksik-semantik guruh", "mikromaydon", "makromaydon" kabi tushunchalar vujudga keldi.

So'zning konseptual shartlanishini dastlab A. Vejbitskaya, Ye. V. Vasileka, R. M. Gaysina, G. F. Gacheva, B. A. Drozdov, YE. P. Lisitskaya, V. I. Nevoyt, J. P. Sokolovskaya va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin (9, 147–148). Mazkur tilshunos olimlarning tadqiqotlarida til manzarasining xususiyati va shakllanish spetsifikasining konseptda aks etishi bo'yicha kuzatishlari natijasidagi xulosalari aks etgan. Ayni paytda, ular konseptni boshqa yondosh tushunchalar bilan taqqoslashga harakat qiladilar va ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini farqlaydilar, konseptlar spetsifikasini belgilaydilar.

Biroq ularning ishlarida konseptni o'rganish modeli ko'rsatilmaydi. Mana shu o'rinda, I. A. Sternin tadqiqotlarida keltirilgan model asosida "yaxshilik" va "yomonlik" konseptini tahlil qilamiz:

I. A. Sternin konsept strukturasi o'rganish metodikasi masalalariga bag'ishlangan o'z tadqiqotlarida (6, 44) barcha konseptlarning uch asosiy tipini ajratadi:

1. **Bir bosqichli** — o'zida faqat bir asos tushunchani — predmet tasavvurini aks ettiruvchi konseptlar.

2. **Ko'p bosqichli** — bir qancha kognitiv tushuncha — qatlamdan iborat, ya'ni mavhumlik tushunchasining ortishi jarayonida bir-birini to'ldiruvchi, ayni damda birining o'rnida boshqasi qo'llanishi mumkin bo'lgan kognitiv qatlamni aks ettiruvchi konseptlar (masalan, "bilimdon" konsepti).

3. **Segment** — ya'ni asosiy qatlamda bir qancha segmentlar bilan o'ralgan, mavhumlik darajasi bir xil ko'rinishda bo'lgan konseptlar ("tolerantlik" konsepti).

"yaxshilik" va "yomonlik" konseptlarini teng darajadagi "ezgulik", "xotamtoylik", "razillik", "xasislik", "ichi qoralik", "ziqnalik" kabi segmentlar qurshovidaligi belgilangan holda yuqoridagi tasniflarning uchinchi tipiga kiritishimiz mumkin.

Y. A. Stepanov esa konseptning struktur modelini quyidagicha belgilaydi:

1) asosiy, aktual belgi ifodalovchi konseptlar;

2) o'zida tarixiylik kasb etgan, to'ldiruvchi "nafaol" belgi ifodalovchi konseptlar;

3) so'z shaklda ham ichki, ham tashqi kodlashtirilgan konseptlarga ajratiladi (5, 45).

Bu o'rinda "yaxshilik" konseptini tahlil qiladigan bo'lsak, u holda biz mazkur konseptning aktual belgisi — imlo lug'atidagi dastlabki ma'nosi: ijobiy; ikkinchi modelning komponenti esa — to'ldiruvchi, tarixiy belgisi — lug'atda berilgan ikkinchi ma'nodagi tushunchani anglatishidir: "имущество, вещь" so'zlarini oladigan bo'lsak, mazkur analogiya mantiqan to'g'ri, chunki bizning mulkimiz, bizga qoldirilgan meros biz uchun foydali va qadrli. Uchinchi komponent bo'yicha esa, "insonlar o'rtasidagi munosabat, odamlarga yaxshilik qilish"dir.

"Yomon" konseptini mazkur sxema asosida tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, birinchi asosiy tushunchasi sifatida "qandaydir yomon, salbiy" tushunchalarini; ikkinchi komponenti sifatida esa mazkur so'z anglatgan

ikkilamchi ma'nolar — "razolat", "yomonlik", "baxtsizlik", "kulfat" "yoqimsizlik" kabi ma'nolarni; uchinchi komponenti esa anchagina "yaxshi" konseptiga nisabatan ancha kengligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni u "yomonlik", "razolat", "kulfat", "razillik" so'zlarida yana alohida so'z ifodalash asosiga ega ekanligini ko'ramiz mumkin.

Albatta, konsept tasnifi bo'yicha yuqorida keltirilgan har ikki model-qolip ham alohida e'tiborga molik, chunki ularning har ikkalasi ham bir-birini inkor etmagan holda, aksincha, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi va konsept tushunchasini har tomonlama chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ko'pma'noli so'zlar ichida, o'zi anglatgan tushunchadan tashqari, "yaxshi" va "yomon" konseptlari ko'chma ma'noda kelishi (masalan, "issiq" (ikkinchi ma'noda), oddiy-bo'ladi (ma'nosida), "zarakunanda" (ikki ma'noda) qora (o'n olti ma'noda).

Mazkur so'zlarning asosiy, yanada aniq semantik mazmuni asosan "rahmdil", "yaxshilik" "ezgulik", "xotamtoylik" kabi so'zlarda; o'git, ixtiyoriy, ko'ngilli kabi so'zlarda bir oz sust ifodalanishiga qaramay, ularning ham semantik tarkibi "yaxshi" konseptiga asoslanadi. "Yomon" konseptida esa "razolat", "vahshiylik", "dahshat", "zulmat", "zulum" so'zlari yorqin tushunchani ifodalasa, "ishyoqmas", "dangasa", "yalqov" so'zlarida bu "yomon" semasi ancha uzoqlashganini, biroq ularning asosida ham "yomon" semasi ozmi-ko'pmi o'z ifodasini saqlashini, demak mazkur konseptga bog'liqligini kuzatishimiz mumkin.

#### **Til ifoda konseptlarining qo'llanishi va ularni tasniflash asoslari.**

Yig'ilgan materiallarni semantik asosdagi tahliliga tayanib, "yaxshi" va "yomon" konseptlarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- "yomonlik" tarqatuvchi kishilarga nisbatan "yaxshilik" qiluvchi kishilar o'zbek xalqi mentalitetiga bog'liq ravishda ancha keng, ya'ni yaxshilik qiluvchi kishilarni konseptual atash, "yomonlik" tushunchasini beruvchi atash semasiga nisbatan ko'proq qatlamni tashkil qiladi;

- biz qalbimiz tubiga singgan "yaxshi" tushunchasini "yomon" tushunchasiga nisbatan keskin farqlaymiz;

- kuzatuvlarimizga qaraganda, har qaysi insonga ham (hech bo'lmaganda so'z orqali) "yaxshi" bo'lishdan ko'ra "yomon" bo'lishga ehtimollik darajasi ikki barobar ortiq;

- kishi kimnidir yaxshi qilishga qodir emas, chunki ana shunday tushunchani anglatuvchi so'zning o'zi tilda mavjud emas (xotamitoy, qo'liochiq, saxiy so'zlaridan tashqari).

#### **Tilni konseptual ifodalashning morfologik xususiyatlari.**

"Yaxshi" va "yomon" konseptlari ot so'z turkumiga oid so'zlar orqali ifodalanadi. Bu esa so'zlovchi tafakkuridagi "yaxshi" va "yomon" konseptlari predmetning belgi xususiyati bilan bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv tilshunoslik — obyekt inson ongi, tafakkuri va uning mental jarayon va holatlarini birgalikda o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida ilmiy soha sanaladi. U anglash va bilimlar, inson faoliyati davomida olamni anglash jarayonlari haqidagi fandir.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri, bu — konseptdir. Bu atama XX asrning 90-yillariga kelib keng qo'llanila boshladi.

Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) konseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi.



Oddiy tushuncha va konsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, konsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha esa so'z orqali ifodalanadi.

Bir so'z bilan aytganda, konsept tushunchasi o'zida mantiqshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va bilish nazariyasi fanlarining o'zaro bog'liqligi, hamkorligini aks ettiradi. Aniqrog'i, konsept ko'p qirrali, integrativ, ya'ni logik — lingvistik — gnoseologik termin hamdir. Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u bilim umumlashmasi yoki "kvanti" deb ataladi. U yuksak darajadagi mazmuniy umumiylikka ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сайидирахимова, Н. Когнитив лингвистика масаласига доир // ЎзМУ хабарлари. — Тошкент, 2017. — № 1/3. — Б. 341–344.
2. Сайидирахимова, Н. Когнитив тилшunoslik ва унинг вазифалари // V Global science and innovations 2019: Central Asia. International-scientific practical conference. — Astana, 2019. — Б. 25–29.
3. Беседина, Н. Концептуальное пространство морфологии // Концептуальное пространство языка: Сб. науч. трудов. — Тамбов, 2005. — С. 149–156.
4. Сафаров, Ш. Когнитив тилшunoslik. — Жиззах: Сангзор, 2006. — 92 б.
5. Степанов, Ю. Основы общего языкознания. — М., 1995. — 270 с.
6. Стернин, И. Методика исследования структуры концепта. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. — Воронеж, 2001. — С. 58–65.
7. Кубрякова, Е. Когнитивный взгляд на природу частей речи // Словарь. Грамматика. Текст. — М., 1996. — 331 с.
8. Кубрякова, Е. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. — М., 2004. № 1. — С. 6–17.
9. Мещанинов, И. Понятийные категории в языке // Труды Военного института иностранных языков. 1945. № 1. — С. 7–16.

### References

1. Sayidirahimova N. *UzMU xabarлари* (UzMU messaging), Tashkent, 2017, No.1/3, pp. 341–344.
2. Sayidirahimova N. V Global science and innovations, 2019: *Central Asia. International-scientific practical conference*, Astana, 2019, pp. 25–29.
3. Besedina N. *Konseptualnoye prostranstvo yazika* (Conceptual Space of Language), Collection of scientific papers, Tambov, 2005, pp. 149–156.
4. Safarov, Sh. *Kognitiv tilshunoslik* (Cognitive linguistics), Jizzax: Sangzor, 2006, 92 p.
5. Stepanov, Y., *Osnovi obshego yazikoznaniya* (Fundamentals of General Linguistics Text), Moscow, 1995, 270 p.
6. Sternin I. *Metodologicheskiye problemi kognitivnoy lingvistiki* (Methodological Problems of Cognitive Linguistics), Voronej, 2001, pp. 58–65.
7. Kubryakova Ye. *Slovar, Grammatika. Tekst* (Dictionary, Grammar. Text), Collection of scientific papers, Moscow, 1996, pp. 218–224.

8. Kubryakova Ye. *Voprosi kognitivnoy lingvistiki*, 2004, No.1, pp. 6–17.
9. Meshchaninov I. *Trudy Voennogo instituta inostrannykh yazykov*, 1945. № 1, pp. 7–16.